

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.B.70.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ROZUMBETOV KENJABEK UMAR O'G'LI

OROLBO'YIDA YASHOVCHI NAVQIRON YOSHDAGI O'G'IL
BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA
KARDIORITMNI TARTIBGA SOLISHNING TAHLILI

03.00.08 – Odam va hayvonlar fiziologiyasi

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Rozumhetov Kenjabek Umar o'g'li

Orolbo'yida yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning jismoniy rivojlanish xususiyatlari va kardioritmi tartibga solishning tahlili 5

Розумбетов Кенжабек Умар угли

Анализ особенностей физического развития и регуляции кардиоритма у юношей, проживающих в Приаралье 21

Rozumhetov Kenjabek Umar ugli

The analysis of physical development features and cardiac rhythm regulation in local youth males living in Aral Sea region 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ 42

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.B.70.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ROZUMBETOV KENJABEK UMAR O'G'LI

OROLBO'YIDA YASHOVCHI NAVQIRON YOSHIDAGI O'G'IL
BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA
KARDIORITMNI TARTIBGA SOLISHNING TAHLILI

03.00.08 – Odam va hayvonlar fiziologiyasi

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.1111/11837 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshmetov Adilbay Tlepovich
Biologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Allamuratov Shuxratilla Inoyatovich
Biologiya fanlari doktori, professor

Rahmatullaev Yorqin Shokirovich
Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.06.2020.B.70.03 Ilmiy kengashning 2023-yil "05" 04 soat 1100 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103 Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel: (0375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz). Qarshi davlat universiteti 2-binosi, 202-xona.

17. Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103 Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel: (0375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "13" 06 kuni tarqatildi.
(2023 yil "13" 06 dagi № 9 raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.Q.Kurbanov

Sh.Q.Kurbanov
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
b.f.d., professor

Sh.A.Samatova

Sh.A.Samatova
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
b.f.n., dotsent

L.H.Yoziyev

L.H.Yoziyev
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan atrof-muhit va iqlim o'zgarishlari aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, bu yurak xuruji va insultga uchraganlar sonining keskin ortishiga, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari kasalliklarining kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Shunga ko'ra, aholi salomatligini mustahkamlash, himoya qilish, jismoniy rivojlanish va funksional imkoniyatlar darajasini oshirishga oid profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda turli noqulay ekologik hududlarda yashovchilarning jismoniy rivojlanish xususiyatlari va jismoniy faollik darajasini aniqlash, noqulay omillarning ular salomatligiga ta'sirini o'rganish, aniqlangan salbiy holatlarni oldini olishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, yoshlarning jismoniy rivojlanishi va salomatligi holatini tahlil qilish, noqulay ekologik omillarning ular organizmiga salbiy ta'sirlarini asoslash, antropometrik ko'rsatkichlarning hududiy me'yoriy standartlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda Janubiy Orolbo'yi sharoitida yashaydigan aholi salomatligining hozirgi holatini monitoring qilish, atrof-muhitning ular organizmiga salbiy ta'sirlarini tahlil qilish va kasalliklarning oldini olishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, jumladan, Orolbo'yi mintaqasida sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish va aholi genofondini asrash bo'yicha loyihalar ishlab chiqildi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "... iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi halokatining salbiy ta'sirlarini yumshatish" bo'yicha vazifalar belgilab berilgan¹. Ushbu vazifalardan kelib chiqib Janubiy Orolbo'yi mintaqasida yashaydigan navqiron yoshdagi o'g'il bolalar jismoniy rivojlanishini tahlil qilish, yurak faoliyatida vegetativ nerv sistemasi tonusining o'zgarishlarini aniqlash, yurak ritmi o'zgaruvchanligi parametrlari va antropometrik ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini ochib berish, yurak faoliyatining vegetativ tartibga solinishi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6099-son "Sog'lom turmush tarzini tatbiq etish va ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi Farmoni, 2017-yil 18-yanvardagi PQ-2731-son "Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 29-avgustdagi 255-son "2015-2018-yillarda nazarda tutilgan Orol fojiasi oqibatlarini yengillashtirish va qayta tiklash bo'yicha kompleks dasturlari, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to'g'risida"gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" va VI. "Tibbiyot va farmakologiya" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi vaqtda navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning morfologik xususiyatlarini baholashning kompleks antropometrik usullaridan foydalangan holda jismoniy rivojlanishining etnik xilma-xilligini o'rganishga oid ma'lumotlar xorijiy olimlarning (Negasheva, 2005; Subramanian, 2005; Dai, 2013; Kim, 2018; Li, 2020) ishlarida bayon etilgan. Shuningdek, qo'shimcha nafas olish qarshiligi paytida, masalan, uzoq vaqt davomida yuz niqoblarini ishlatish natijasida vegetativ buzilish belgilari paydo bo'lishi haqida ma'lumotlar uchraydi (Trukhanov, 2007; Pankova, 2008, 2021; Еркудов, 2019; Özdemir, 2020; Esposito, 2020; Matuschek, 2020; Epstein, 2021).

MDH mamlakatlarida navqiron yoshdagi o'g'il bolalar yashash joyining ekstremal iqlim va geografik muhitiga moslashish reaksiyalarini aniqlashda ularning jismoniy rivojlanishini va funksional ko'rsatkichlarini o'rganish bo'yicha katta tadqiqot ishlari olib borilmoqda (Милованов, 2004; Цатурян, 2009; Горшенева, 2017; Саггаров, 2018; Еркудов, 2019, 2020; Пашкова, 2019; Юртайкина, 2022).

O'zbekistonda, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida bolalar va navqiron yoshdagi o'g'il bolalar organizmining jismoniy rivojlanishi va gemodinamika va nafas olishning xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar R.T.Kamilova (2016), O.A.Ataniyazova (2001), A.T.Matchanov (1999), A.T.Esimbetov (2001), E.M.Maturazova (2008), A.K.Utepbergenov (2010), N.P.Mirametova (2019), R.M.Rzaev (2019) va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan.

Bugungi kunga qadar Janubiy Orolbo'yi hududida etnik kelib chiqishini hisobga olgan holda navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning jismoniy rivojlanish darajasi va funksional holati xususiyatlarini kompleks o'rganish, shuningdek, qo'shimcha nafas olish qarshiligi vaqtida yurak ritmi o'zgaruvchanligi yordamida yurak faoliyatini tartibga solish mexanizmlari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpog'iston davlat universiteti "Umumiy biologiya va fiziologiya" kafedrasining "Janubiy Orolbo'yining ekologik jihatdan noqulay muhiti ta'siri ostida shakllangan odam va hayvonlar organizmining morfologik, fiziologik va biokimyoviy xususiyatlarini o'rganish" (2019-yil 29-avgust №1) ilmiy-tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Orolbo'yida yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning jismoniy rivojlanishi va yurak faoliyatining vegetativ tartibga solinishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qoraqalpog'iston Respublikasida yashovchi turli etnik xilma-xillikka ega navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning jismoniy rivojlanishini o'rganish;

harakat faolligi turlicha bo'lgan navqiron yoshdagi o'g'il bolalarda tana tuzilishi xususiyatlarini aniqlash;

Qoraqalpog'iston Respublikasining turli zonalarida yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning jismoniy rivojlanish holatini baholash;

qo'shimcha nafas olish qarshiligi vaqtida yurak ritmi o'zgaruvchanligi yordamida kardioritmning o'zgarishini tahlil qilish;

qo'shimcha nafas olish qarshiligi bilan yurak ritmi o'zgaruvchanligi parametrlari va antropometrik ko'rsatkichlarning korrelyatsiyasini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasida yashovchi navqiron yosh (17-21 yosh)dagi o'g'il bolalar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Qoraqalpog'iston Respublikasida yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning antropometrik ko'rsatkichlari va yurak ritmi o'zgaruvchanligi parametrlarini baholash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada antropometriya, qo'shimcha nafas olish qarshiligini modellashtirish sharoitida vegetativ nerv sistemasi tonusini yurak ritmi o'zgaruvchanligi yordamida baholash va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog'iston Respublikasida yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning jismoniy rivojlanishi etnik xilma-xillikka bog'liqligi aniqlangan;

sport bilan shug'ullanmaydigan navqiron yoshdagi o'g'il bolalarga nisbatan sportchilarda tananing dolixomorfizatsiyalashuvi tendensiyasi isbotlangan;

Orol dengizi hududiga yaqin joylashgan kritik zonada yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning tana tuzilishi xususiyatlari ekologik sharoitlarga bog'liqligi aniqlangan;

Orolbo'yida yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarda parasimpatik tizim tonusining yuqori darajada kuchlanishi aniqlangan;

navqiron yoshdagi o'g'il bolalarda tana tuzilishining braximorfizatsiyasi qo'shimcha nafas olish qarshiligiga past "simpatik" javobning prognozli markeri hisoblanishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog'iston Respublikasining turli zonalarida yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalar antropometrik ko'rsatkichlarining hududiy me'yoriy standartlarni belgilash va hududiy sog'lomlashtirish dasturlarini amalga oshirish bo'yicha konsultativ tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasining turli zonalarida istiqomat qiluvchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning qo'shimcha nafas olish qarshiligi bilan yurak ritmi o'zgaruvchanligi parametrlari va antropometrik ko'rsatkichlari bo'yicha yoshlarning sog'ligini yaxshilashga bag'ishlangan korreksion dastur ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Qo'llanilgan birlamchi materialni yig'ish va qayta ishlash uslublari adekvat bo'lib, bir-birini to'ldirib turadi. Olingan natijalar mavjud dalillarga zid emas va boshqa tadqiqotchilarning ma'lumotlari bilan taqqoslandi. Solishtirilgan ko'rsatkichlardagi farqlarning ishonchliligini statistik tahlil qilish uchun Excel funksiyalari, StatXact-8 (version 20.0; SPSS, Inc.,

Chicago, IL) va Past (version 2.17, Norway, Oslo, 2012) ma'lumotlarni statistik quyta ishlash dasturlari qo'llanildi. Jumladan, natijalarni taqqoslash uchun Kraskel-Uollis mezonini va ularning ishonchliligi esa Mann-Uitney mezonini yordamida aniqlandi. Olingan natijalarning isboti ularning respublika va xalqaro anjumanlardagi muhokamasi, natijalarning retsenziyalangan ilmiy nashrlarda chop etilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turli etnik guruhlarga, turli darajadagi harakat faolligiga ega bo'lgan va turli xil ekologik sharoitda yashaydigan navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning jismoniy rivojlanishi va yurak faoliyatining vegetativ tartibga solinishi bo'yicha yoshga oid fiziologiya ma'lumotlarini to'ldiradi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati olingan natijalar Qoraqalpog'iston Respublikasidagi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning jismoniy rivojlanishi asosida ularning salomatlik holatini monitoring qilish, antropometrik ko'rsatkichlar standart o'lchamlarini ishlab chiqishda, har xil turdagi tibbiy-pedagogik korreksiya, har xil ekologik omillarning organizm hayot faoliyatiga salbiy ta'sirining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda, yengil sanoat sohasida, jumladan, kiyim-kechaklarni tikish uchun o'lcham standartlari sistemasi sifatida hamda yoshga oid fiziologiya, sport fiziologiyasi, ekologik fiziologiya va pediatriya fan sohalarida o'quv jarayonida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar materiallari sifatida foydalanilishi imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Orolbo'yida yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning jismoniy rivojlanish xususiyatlari va kardioritmni tartibga solishning tahlili bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

jismoniy faollikka bog'liq holda navqiron yoshdagi o'g'il bolalarda jismoniy rivojlanish xususiyatlari va kardiorespirator tizimining ko'rsatkichlari, shuningdek, Elevation Training Mask 2.0 trenajyor niqobi yordamida qo'shimcha nafas olish qarshiligini modellashtirish orqali yoshlarda yurak ritmi o'zgaruvchanligini tartibga solish to'g'risidagi tavsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi amaliyotida joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 2022-yil 17-dekabrda 01-14/2777-son ma'lumotnomasi). Natijada Qoraqalpog'iston Respublikasining noqulay ekologik sharoitlarida yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarda jismoniy chidamlilik va jismoniy tayyorgarlik chegaralarini aniqlash, sport yuklamalarini bajarishda kardiorespirator tizim faoliyatining xususiyatlarini baholash imkonini bergan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida aholi yashash punktining ekologik sharoitiga qarab, navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning morfofunksional xususiyatlari va kardioritmning regulatsiyasi to'g'risida obyektiv ma'lumotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 19-yanvardagi 01/392-son ma'lumotnomasi). Natijada navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning jismoniy rivojlanishi, kardiorespirator tizimining funksional holati bo'yicha mintaqaviy standartlarni ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 7 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsia etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda (ulardan ikkitasi Scopus bazasida) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil qilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari asoslangan, obyekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Zamonaviy bosqichlarda ekologik jihatdan noqulay hududlarda yashovchi aholi organizmining jismoniy rivojlanishini o'rganish**" deb nomlangan birinchi bobida Orol dengizi fojiasi oqibatlarining bioekologik xususiyatlari, atrof-muhitda tarqalgan pollyutantlarning organizm jismoniy rivojlanishi va funksional holatiga salbiy ta'siri, ekologik jihatdan noqulay hududlar aholisining jismoniy rivojlanishi va salomatlik holati haqida zamonaviy adabiyotlar ma'lumotlari keltirilgan. Shuningdek, qo'shimcha nafas olish qarshiligi (QNOQ)ni qo'llashning nazariy va amaliy jihatlari va uni modellashtirishning zamonaviy usullari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot materiallari va usullari**" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlarda ishtirok etgan ishtirokchilar kontingenti va tadqiqot dizayni, umumqabul qilingan kompleks antropometrik (tana o'lchamlarini aniqlash) tekshiruv usuli va texnikasi, QNOQ ni modellashtirish orqali yurak ritmi o'zgaruvchanligi (YRO') parametrlarini ro'yxatdan o'tkazish usullari va tadqiqotlarda qo'llanilgan asbob-uskunalar batafsil yoritilgan. Shuningdek, olingan natijalarni statistik tahlil qilish usullari keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Orolbo'yi aholisining tana tuzilishi xususiyatlarini tahlil qilish noqulay ekologik hududlarda yashovchi shaxslar salomatligi holatining belgisi sifatida**" deb nomlangan uchinchi bobida Orolbo'yi mintaqasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi)da yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarda tana o'lchamlarini baholashning kompleks antropometrik usuli yordamida tana tuzilishi va jismoniy rivojlanish xususiyatlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.


Qoraqalpog'iston Respublikasida yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarda jismoniy rivojlanishning etnik xilma-xilligini o'rganish. Qoraqalpog'iston Respublikasi

yoshlarining jismoniy rivojlanishi monitoringi mintaqaning ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy holati noqulayligi sababli o'tkaziladi. Antropometrik parametrlarning majmuasini tekshiriluvchi subyektlarning etnik kelib chiqishiga qarab aniqlash zarur bo'lib, ushbu mintaqada turli millatdagi ko'plab subyektlar yashaydi. Turli etnik guruhlardagi o'g'il bolalarda ma'lumotlarni tahlil qilish tana vazni, bo'y uzunligi, boldir uzunligi, oyoq kaft uzunligi, ko'krak qafasi aylanasi (KQA), son aylanasi, chakka va orqa (kurak suyagi ostidan)da teri-yog' qatlami qalinligi (TYQQ), qo'lining mushak kuchi (o'ng va chap qo'llar uchun) da statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmaganligini ko'rsatdi.

Qo'l uzunligi turkmanlarda o'zbek va qoraqalpoqlarga nisbatan kalta, oyoq uzunligi qoraqalpoqlarda qozoqlarga nisbatan uzun, turkmanlarda esa o'zbek va qoraqalpoqlarga nisbatan kalta ekanligi kuzatildi. Ko'krak qafasining sagittal diametri (KQSD) qozoq, o'zbek va turkmanlarda qoraqalpoqlarga nisbatan yuqori, ko'krak qafasining ko'ndalang diametri (KQKD) esa o'zbek va turkmanlarda qoraqalpoqlarga nisbatan yuqori bo'lishi aniqlandi. Qorinda TYQQ qozoq, o'zbek va turkmanlarda qoraqalpoqlarga nisbatan yuqori, yelkaning orqa yuzasida TYQQ qozoqlarda qoraqalpoqlarga nisbatan yuqori, o'pkaning tiriklik sig'imi (O'TS) miqdori o'zbeklarda qoraqalpoqlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Turli etnik guruhlarining jismoniy rivojlanishida, jumladan, bir milliy guruh vakillarining boshqa guruh vakillaridan tana tuzilishidagi farqlanishning mutlaqo barcha parametrlarida aniq farqlar yo'qligini, ehtimol, Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi millatlarning etnogenezi bilan bog'liqligi orqali izohlash mumkin.

Turli darajadagi harakat faoliyatiga ega bo'lgan navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning antropometrik xususiyatlarini o'rganish. Tadqiq qilingan "sportchilar" guruhida tana vazni, qo'l uzunligi, yelka uzunligi, bilak uzunligi, oyoq uzunligi, son uzunligi, KQA, yirik bo'g'imlar kengligi, shuningdek, O'TS ning statistik jihatdan sezilarli darajada katta qiymatlari topildi (1-rasm).



1-rasm. "Nazorat" va "Sportchilar" guruhlarida vakillarida ayrim tana uzunliklarini taqqoslash (* $p < 0,001$; $n = 172$).

Xuddi shu guruhdagi subyektlarda korpus uzunligi, KQSD va KQKD, yelkalarining akromial diametri, tos suyagi diametri, ko'krakdagi va orqa (kurak suyagi ostida)da TYQQ, shuningdek, bel aylanasi statistika jihatdan ancha kichik qiymatlari aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

“Nazorat” va “Sportchilar” guruhlaridagi antropometrik ko'rsatkichlarni taqqoslash (μ ; (L.L.;U.L. 95%CI)) (n=172)


Guruhlar	“Nazorat” (n=86)	“Sportchilar” (n=86)	p-qiymat
Ko'rsatkichlar			
Tana vazni, kg	66,47 (64,07; 68,88)	68,90 (67,13; 70,68)	0,02224
Bo'y uzunligi, sm	174,75 (173,62; 175,90)	174,77 (173,58; 175,96)	0,9939
Korpus uzunligi, sm	97,50 (94,92; 100,08)	77,02 (75,95; 78,09)	$1,098 \times 10^{-26}$
Qo'l uzunligi, sm	65,02 (63,88; 66,16)	79,48 (78,66; 80,29)	$4,099 \times 10^{-28}$
Oyoq uzunligi, sm	77,25 (74,84; 79,66)	97,75 (96,95; 98,55)	$1,73 \times 10^{-27}$
KQSD, sm	19,65 (19,11; 20,18)	18,36 (17,95; 18,77)	$5,34 \times 10^{-5}$
KQKD, sm	29,69 (29,06; 30,31)	27,73 (27,23; 28,24)	$9,082 \times 10^{-6}$
Yelkalarining akromial diametri, sm	41,68 (41,20; 42,16)	34,19 (33,69; 34,69)	$5,703 \times 10^{-29}$
KQA, sm	87,71 (85,91; 89,51)	92,00 (90,81; 93,20)	$7,726 \times 10^{-6}$
Tos suyagi diametri, sm	28,95 (28,33; 29,58)	28,01 (27,69; 28,35)	0,02762
Ko'krak so'rg'ichida TYQQ, mm	7,84 (6,81; 8,86)	5,02 (4,60; 5,44)	$6,819 \times 10^{-9}$
Orqa (kurak suyagi ostidan) da TYQQ, mm	8,90 (7,78; 10,02)	8,36 (7,88; 8,86)	0,0445
Bel aylanası, sm	80,47 (78,24; 82,70)	77,62 (76,40; 78,84)	0,04271
O'TS, ml	3872,33 (3732,10; 4012,60)	4320,18 (4143,30; 4497,10)	$1,041 \times 10^{-5}$

Bo'y uzunligi, boldir uzunligi, yelkaning orqa yuzasida TYQQ, qorinda TYQQ va sonning oldingi yuzasida TYQQ da statistik jihatdan sezilarli farqlar topilmadi. Shunday qilib, bo'y uzunligi farqlari bo'lmasa ham, sportchilarning kichik korpus uzunligiga, tor yelka diametri va tor tos suyagiga, shu bilan birgalikda, uzun oyoqlarga ega bo'lishi ularning dolixomorfizatsiyalashuvi tendensiyasini ko'rsatmoqda. Ushbu tana tuzilishidagi odamning mavjudligi, ushbu ishda yirik bo'g'imlar kengligi, kichik qalinlikdagi TYQQ va bel aylanası bo'yicha olingan ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi.

Olingan natijalar va adabiyot ma'lumotlari Orolbo'yi va boshqa hududlarda yashovchi subyektlarda antropometrik xususiyatlarining o'xshashligi haqida dalolat beradi. Tana tuzilishi shakllanishida endokrin destruktorg'larining ilgari aniqlangan ishtirokini hisobga olgan holda quyidagi taxmin bildiriladi: Qoraqalpog'istondagi sport to'garaklari trenerlari mashg'ulot jarayonini boshlash bosqichida shunday

tana tuzilishiga ega subyektlarning foydasiga ongli ravishda tanlov qabul qilishadi. Shunday qilib, Orolbo'yida yashaydigan sportchilardagi antropometrik xususiyatlarni va ularning turlarini asoslash shubhasiz dolzarb, bunda yoshlarni sport mashg'ulotlariga asosli ravishda tanlab kiritish amaliyoti uchun bunday kuzatishlarning amaliy ahamiyatiga tayaniladi. Pubertat davrida dozalangan jismoniy yuklarni (zo'rliqish)ga duchor bo'lgan subyektlarda endokrin destrukturlarning ta'siriga katta ehadlilikni ham istisno qilmaslik kerak.

Orolbo'yining turli zonalarida yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarda tana tuzilishining qiyosiy tahlili. "Zona №3" da yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning tana vazni, gavda uzunligi, KQA, tizza bo'g'imi aylanasi va yelkaning orqa yuzasida TYQQ ko'rsatkichlari ularning "Zona №1" da yashovchi tengdoshlari ko'rsatkichlaridan yuqori ekanligi aniqlandi (2-rasm). Shuningdek, "Zona №1" da yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning qo'l uzunligi, kaft uzunligi, oyoq uzunligi, son uzunligi ko'rsatkichlari ularning "Zona №2" va "Zona №3" da yashovchi tengdoshlari ko'rsatkichlaridan yuqori ekanligi kuzatildi. Bilak uzunligi, oyoq kafti uzunligi, yirik bo'g'imlar kengligi, bilakuzuk aylanasi, son aylanasi, qo'lning mushak kuchi (o'ng va chap qo'llar uchun)da statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi.



2-rasm. Orolbo'yining turli zonalarida yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarda TYQQ ni solishtirish ($p < 0,05$; $n = 467$).

"Zona №3" da yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning gavda uzunligi, "Zona №1" da yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarning esa qo'l va oyoq uzunligining yuqori ekanligi e'tiborni o'ziga tortadi. Adabiyotlardan ma'lumki, dolixomorf tana tuzilishi – oyoq uzunligining yuqori qiymatlari va gavda uzunligining past qiymatlari bilan belgilanadi. Olingan natijalar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, "Zona №1" da yashovchi subyektlarda tananing dolixomorfizatsiyalashuvi tendensiyasi kuzatilmoqda. "Zona №3" da yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarda esa tananing braximorfizatsiyalashuvi

kuzatilmoqda. Tana tuzilishining aniqlangan xususiyatlari ushbu region atrof-muhitining ifloslanganligi va endokrin tizimini buzadigan pollyutantlar ta'siri ostida shakllangan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Ko'p sonli tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xlororganik birikmalar endokrin tizimni buzuvchi moddalar hisoblanadi. Bu moddalar prenatal va postnatal ontogenezda organizmning o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Adrenarx va pubertat davrida bo'y uzunligi o'sishini tartibga solishda insulinga bog'liq o'sish omili-1 (IGF-1) gormoni va jinsiy gormonlar muhim rol o'ynaydi. Xlororganik birikmalar miqdori yuqori bo'lgan hududlarda o'tkazilgan tadqiqotlarda, ularning ta'siri natijasida qizlarda ham, bolalarda ham jinsiy rivojlanish davri kechikkanligi aniqlangan. Orolbo'yida yashovchi aholida estrogen konsentratsiyasi monitoringi o'tkazilganda, ularda ushbu gormon miqdori kam ekanligi aniqlangan. Ma'lumki, erta jinsiy rivojlanish va jinsiy gormonlar miqdorining ortishi braximorf tana tuzilishi tipining, ularning yetishmovchiligi esa dolixomorf tana tuzilishi tipining rivojlanishiga olib keladi. Orol dengizining kritik zonasida yashovchi yoshlarning tana tuzilishiga endokrin destruktorglarning androgen va estrogen ingibirlovchi ta'sirini taxmin qilish mumkin. Chunki estrogenlar konsentratsiyasining yetarli bo'lmasligi qo'l va oyoqning proksimal bo'limlari suyaklarining tez o'sib ketishiga olib keladi. Biz qo'lning kaft va oyoqning son qismi uzunligining kritik zonada yashovchi yoshlarda "Zona №3"ga nisbatan yuqori ekanligini aniqladik.

2-jadvalda guruhlar orasida tana vazni indeksi (TVI)ning keskin tana vazni yetishmovchiligi, tana vazni yetishmovchiligi, ortiqcha tana vazni, norma va semirish kategoriyalarining tarqalish ulushi ko'rsatilgan. Guruhlararo o'rganilayotgan kategoriyalarning tarqalishida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi ($p=0,1801$). Biroq "Zona №3" da ortiqcha tana vazni va semirish 15% ko'ngillilarda, "Zona №1" da 6% va "Zona №2" da esa 9% ko'ngillilarda kuzatildi. Turli hududlardagi sinovdan o'tgan navqiron yoshdagi o'g'il bolalarda TVI turlicha og'ishlari bilan farq qilmaydi.

2-jadval

Orolbo'yining turli zonalarida yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarda TVI bo'yicha aniqlangan tana vazni og'ishlarini taqsimlash (n=467)

Og'ish \ Zona	Zona №1 (n=155)	Zona №2 (n=159)	Zona №3 (n=153)
Tana vaznining keskin yetishmovchiligi, %	2	1	0
Tana vaznining yetishmovchiligi, %	12	15	9
Norma, %	80	75	76
Ortiqcha tana vazni, %	6	6	10
Semizlik, %	0	3	5

Izoh: $p=0,1801$.

Demak, Orolbo‘yi mintaqasining ma‘lum bir zonasida yashash tana vaznining yetishmasligi yoki ortiqcha tana vazni (yoki semizlik)ni keltirib chiqaruvchi omil hisoblanmaydi.

Dissertatsiyaning “**Qo‘shimcha nafas olish qarshiligi bilan kardioritmning o‘zgarishini tahlil qilish va uning jismoniy rivojlanish bilan bog‘liqligi**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida turli darajadagi QNOQ ni modellashtirishdan keyin yurak faoliyatini vegetativ tartibga solish, QNOQ vaqtida YRO‘ parametrlari va antropometrik ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi korrelyatsion aloqalar haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Turli darajadagi qo‘shimcha nafas olish qarshiligini modellashtirishdan keyin yurak faoliyatini vegetativ tartibga solish. “Kichik”, “o‘rta” va “katta” darajadagi QNOQ qo‘llanilgan subyektlar orasida simpatik va parasimpatik nerv tizimining tobora kuchayib borishi 3-jadvalda ko‘rsatilgan. O‘rganilayotgan toifalarning tarqalishida statistik jihatdan ahamiyatli guruhlararo farqlar aniqlanmadi ($p=0,5172$). QNOQ ni yuz niqobi orqali modellashtirish sharoitida YRO‘ parametrlari bo‘yicha VNS tonusidagi o‘zgarishlarni baholaganimizda bizda ko‘ngillilarning ikki guruhi tuzildi: “Parasimpatik tonusi oshgan” va “Simpatik tonusi oshgan”. QNOQ ning “kichik” darajasini modellashtirishda ishtirok etgan ko‘ngillilarning 92% ida parasimpatik, 8% ida simpatik tonusi oshgan. QNOQ ning “o‘rta” darajasini modellashtirishda ishtirok etgan ko‘ngillilarning 89% ida parasimpatik, 11% ida simpatik tonusi oshgan. QNOQ ning “katta” darajasini modellashtirishda esa ishtirokchilarning 91% ida parasimpatik va 9% ida simpatik tonusi oshganligi ma‘lum bo‘ldi.

3-jadval

“Kichik” – 3000 fut (914,4 m), “o‘rta” – 9000 fut (2743,2 m) va “katta” – 18000 fut (5486,4 m) darajada QNOQ sharoitida “Parasimpatik tonusning oshishi” va “Simpatik tonusning oshishi” bilan subyektlarni taqsimlash
(n=715)

QNOQ \ VNS tonusi	3000 fut (914,4 m) (n=239)	9000 fut (2743,2 m) (n=235)	18000 fut (5486,4 m) (n=241)
Parasimpatik tonusning oshishi, %	92	89	91
Simpatik tonusning oshishi, %	8	11	9

Parasimpatik tonusi oshgan subyektlarda QNOQ bilan modellashtirilishning “kichik”, “o‘rta” va “katta” darajalarida YRO‘ parametrlarining o‘zgarishidagi farqlarini solishtirish NN kardiointervallarning standart og‘ishi (SDNN), bir qator kardiointervallarning ketma-ketlik farqlari yig‘indisining kvadrat ildizi (RMSSD) va kamida 50 ms farq qiladigan qo‘shni NN intervallari ulushi (pNN50%) ko‘rsatkichlarining qiymati oshishini, moda amplitudasi (AMo) ko‘rsatkichi qiymatining pasayishini, stress indeksi (SI) ko‘rsatkichi qiymatining o‘zgaray

qolganligini ko'rsatadi. QNOQ sharoitida nafas olish erkin nafas olish yo'li bilan sodir bo'lgan holatdan farqli o'laroq, nafas olish hajmining pasayishi o'pkadagi cho'ziluvchan retseptorlarning qo'zg'aluvchanligini kamaytiradi. Bu esa uzunchoq miyada joylashgan neyronlar faollashuvining o'zgarishiga va natijada parasimpatik tizim tonusining oshishiga olib keladi.

Simpatik tonusi oshgan subyektlarda QNOQ bilan modellashtirilishning "kichik", "o'rt" va "katta" darajalarida YRO' parametrlarining o'zgarishidagi farqlarini solishtirish SDNN, RMSSD va pNN50% ko'rsatkichlarining qiymati kamayishini, AMo va SI ko'rsatkichlarining qiymati oshishini ko'rsatadi. ETM orqali nafas olish nafas bilan chiqarilgan havodan qayta nafas olish (retsirkulyatsiya)ga olib keladi. Bu esa ko'ngillilarda giperkapniyani chaqirishi mumkin. Adabiyotlarga ko'ra, giperkapniya uzunchoq miyada joylashgan xemosensitiv neyronlarga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qilish orqali simpatik tonusning oshishiga olib keladi.

Ushbu ishda olingan natijalarni tahlil qilishda turli darajadagi QNOQ uchun simpatik va parasimpatik tizim reaksiyalarining darajasi haqida xulosa chiqarish mumkin emas. Chunki bir tomondan, har ikkala guruh subyektlarining turli darajalarida nafas olish qiyinchiliklarini simulyatsiya qilish uchun QNOQ bo'yicha turli YRO' ko'rsatkichlarida ba'zi bir o'zgarishlar mavjud. Parasimpatik tizim tonusi oshgan ko'ngillilar "kichik" darajaga mos keladigan QNOQ modellashtirilganida SDNN va TP o'zgarishlariga ega bo'lishmadi. Boshqa tomondan, QNOQ barcha parametrlarining farqini taqqoslashda statistik jihatdan ahamiyatli farqlar mavjud emasligi kuzatilgan.

Ishda turli darajadagi QNOQ ni yuz niqobi orqali modellashtirish sharoitida YRO' parametrlari bo'yicha VNS tonusidagi o'zgarishlarni baholash uchun harakat qilindi. Birinchidan, QNOQ subyektlarning 90 % ida parasimpatik tizim tonusini kuchaytirganligi, ko'ngillilarning 10 % ida esa simpatik faoliyatini kuchaytirishi ko'rsatildi. Hozirgi vaqtda YRO' parametrlaridan foydalanish gemodinamik disregulyatsiyaning funksional sabablari bo'lgan bemorlarda ularning salomatlik holatini kuzatishga imkon beradi. Misol uchun, "simpatik" ko'rsatkichlarning o'sishi yurak ritmining buzilishi, bo'lmacha va qorinchalar fibrillyatsiyasi, "parasimpatik" ko'rsatkichlarning o'sishi esa – vazo-vagal bexushlik haqida taxmin qilish imkonini beradi. Shunday qilib, ushbu ishda olingan ma'lumotlar gemodinamikaning reaktivligini prognoz qilishning ilmiy asoslanishi va ayniqsa, yopiq joylarda himoya niqoblari bilan nafas olinganda, aerodinamik qarshilikning ortishi bilan YRO' ni yozib olish imkoniyatini ochib beradi.

Qo'shimcha nafas olish qarshiligi bilan yurak ritmi o'zgaruvchanligi parametrlari va antropometrik ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelyatsion aloqalarni o'rganish. 4-jadvalda ishda bajarilgan antropometrik o'lchovlarni tavsiflovchi statistika taqdim etilgan. TVI bo'yicha aniqlangan tana vazni o'zgarishlarining tahlili quyidagilarni ko'rsatdi: tana vazni keskin yetishmovchiligining ulushi 1%, tana vaznining yetishmovchiligi 10%, shartli me'yor 83%, ortiqcha tana vazni 5% va semizlik 2%.

**Asosiy antropometrik parametrlarning qiymatlari va
95% ishonch oralig'i (n=196)**

№	Ko'rsatkichlar	Qiymati
1	Bo'y uzunligi, sm	174,47 (173,62; 175,32)
2	Tana vazni, kg	64,89 (63,46; 66,31)
3	Korpus uzunligi, sm	76,90 (76,40; 77,40)
4	Gavda uzunligi, sm	47,60 (47,02; 48,18)
5	Qo'l uzunligi, sm	78,17 (77,58; 78,77)
6	Oyoq uzunligi, sm	97,57 (96,98; 98,15)
7	KQKD, sm	27,05 (26,74; 27,37)
8	KQSD, sm	18,98 (18,67; 19,29)
9	Tizza bo'g'imi kengligi, sm	9,11 (9,02; 9,20)
10	To'piq bo'g'imi kengligi, sm	7,27 (7,21; 7,33)
11	KQA, sm	89,22 (88,32; 90,11)
12	Bel aylanasi, sm	75,27 (74,20; 76,34)
13	Bo'ksa aylanasi, sm	89,77 (88,59; 90,95)
14	Yelkaning orqa yuzasida TYQQ, mm	5,35 (5,17; 5,54)
15	Qorinda TYQQ, mm	8,77 (8,37; 9,17)
16	Sonda TYQQ, mm	8,03 (7,67; 8,39)
17	O'TS, ml	4133,92 (4011,50; 4256,40)

Kutilganidek, QNOQ ni modellashtirish (ETM ning 18000 futli darajasi (5486,4 m)) orqali vegetativ tonusni baholashda RMSSD, pNN50%, spektrning yuqori chastotali tarkibiy qismining quvvati (HF) parametrlarining kamayishi va AMo va SI parametrlarining ortishi aniqlandi (5-jadval).

5-jadval


QNOQ modellashtirilgani (18000 fut (5486,4 m)) dan keyin vegetativ tonusidagi o'zgarishlar (o'rtacha qiymatlar, YRO' ko'rsatkichi va uning o'rtacha farqlari uchun 95% ishonch oralig'i) (n=196)

№	Sharoit	QNOQ gacha	QNOQ modellashtirilganidan so'ng	QNOQ gacha va u modellashtirilganidan keyingi qiymatlarning o'rtacha farqi	p-qiymat (T-Vilkokson mezon)
	YRO' parametrlari				
1	RMSSD, ms	1086,89 (1025,20; 1148,50)	1247,79 (1190,60; 1305,00)	-160,89 (-209,37; -112,42)	$1,619 \times 10^{-10}$
2	pNN50%	15,83 (14,45; 17,21)	20,73 (19,26; 22,21)	-4,90 (-6,10; -3,71)	$3,6573 \times 10^{-16}$
3	AMo, %	29,12 (27,90; 30,35)	26,21 (25,18; 27,23)	2,91 (1,72; 4,11)	$1,6597 \times 10^{-6}$
4	SI, shartli birlik	43,99 (39,83; 48,16)	39,66 (36,03; 43,30)	4,33 (0,17; 8,49)	0,039884
5	HF, ms ²	1412,97 (1340,90; 1485,10)	1764,42 (1683,90; 1845,00)	-351,45 (-417,79; -285,11)	$2,143 \times 10^{-17}$


Ushbu YRO' parametrlarining o'zgarishi niqob orqali nafas olishdan keyin parasimpatik tizim faolligining kuchayishini ko'rsatadi.

QNOQ dan oldin va keyin bo'y uzunligining kuchsiz salbiy korrelyatsiyasi faqat pNN50% qiymatlari bilan, QNOQ dan keyin HF qiymatlari bilan ham kuchsiz salbiy korrelyatsiyasi aniqlandi. YRO' parametrlarining qolgan qismi bilan bo'y uzunligi orasida korrelyatsion aloqalar uchramadi. Korpus va gavdaning uzunligi RMSSD, pNN50%, HF (gavda uzunligi faqat QNOQ dan keyin korrelyatsion aloqaga ega) bilan kuchsiz salbiy korrelyatsion aloqalarga ega va AMo va SI (faqat korpus uzunligi bilan) parametrlari bilan esa QNOQ dan oldin va keyin kuchsiz ijobiy korrelyatsiyaga ega bo'ldi (3-rasm). QNOQ simulyatsiyasidan oldin RMSSD va HF qiymatlari yelkaning orqa yuzasida TYQQ bilan kuchsiz salbiy korrelyatsiya ko'rsatdi. TYQQ va QNOQ ni modellashtirishdan oldin o'lichangan "simpatik" YRO' belgilari orasida kuchsiz ijobiy korrelyatsiyasi aniqlandi: AMo va SI qiymatlari yelkaning orqa yuzasida va sonda TYQQ ko'rsatkichlari bilan.

O'TS QNOQ dan oldin va keyin YRO' ning "parasimpatik" parametrlarga, jumladan, RMSSD, pNN50% va HF ga kuchsiz salbiy korrelyatsiya ko'rsatdi va AMo va SI (faqat QNOQ dan oldin)lar bilan esa kuchsiz ijobiy korrelyatsiyalandi (4-rasm). KQSD RMSSD va pNN50% qiymatlari bilan kuchsiz salbiy va QNOQ dan oldin SI bilan kuchsiz ijobiy korrelyatsiyaga ega bo'ldi. Boshqa YRO' parametrlari bilan antropometrik ko'rsatkichlar orasida bog'liqlik kuzatilmadi.



3-rasm. QNOQ dan oldin va keyin gavda uzunligi va RMSSD ning kuchsiz salbiy korrelyatsiyasi (n=196): Gavda uzunligi va RMSSD (QNOQ dan oldin) o'rtasidagi korrelyatsion aloqa $p=-0,15$; $p=0,036275$ (A); Gavda uzunligi va RMSSD (QNOQ modellashtirilganidan so'ng) o'rtasidagi korrelyatsion aloqa $p=-0,18$; $p=0,011109$ (B).



4-rasm. QNOQ dan oldin va keyin O'TS va AMo ning kuchsiz ijobiy korrelyatsiyasi (n=196): O'TS va AMo (QNOQ dan oldin) o'rtasidagi korrelyatsion aloqa $\rho=0,22$; $p=0,0023945$ (A); O'TS va AMo (QNOQ modellashtirilganidan so'ng) o'rtasidagi korrelyatsion aloqa $\rho=0,16$; $p=0,029314$ (B).

Korrelyatsiya munosabatlarining yo'nalishini tahlil qilish antropometrik ko'rsatkichlar va YRO' parametrlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Subyektlarda korpus va gavda uzunligining yuqori qiymatlari QNOQ dan oldin va keyin "parasimpatik" YRO' parametrlarining (RMSSD, pNN50% va HF) kichik qiymatlari va "simpatik" YRO' parametrlarining (SI va AMo) yuqori qiymatlari bilan bog'liq. Bundan tashqari, KQSD va yuqori TYQQ ko'rsatkichlari "parasimpatik" YRO' parametrlarining kichik qiymatlari bilan va "simpatik" YRO' parametrlarining yuqori qiymatlari bilan bog'liq.

Shu bilan birga, o'rganilayotgan ko'pchilik parametrlarning kuchsiz statistik aloqasi va hisoblangan korrelyatsiya koeffitsientlarining keng ishonch oralig'i YRO' parametrlariga nisbatan antropometrik xususiyatlarning sezilarli o'zgarishlarini ko'rsatadi. Korrelyatsiyani hisoblashda ma'lumotlarning ishonchlilik ortishi uchun bir xil jinsdagi, yosh, ijtimoiy holati va bir xil yashash joyida bo'lgan ko'ngillilar tanlab olingan. Bundan tashqari, bir xil antropometrik ko'rsatkichlarning barcha o'rganilayotgan YRO' belgilari bilan korrelyatsiyasi aniqlandi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, olingan ma'lumotlar tananing tuzilishi va vegetativ tonusning funksional reaktivligi o'rtasidagi munosabatlarning asosiy tendensiyalarini tavsiflash uchun asos bo'ladi. Shunday qilib, ko'krak qafasining tekisligi, yuqori qiymatli O'TS va yuqori qalinlikdagi TYQQ bilan tananing braximorfizatsiyalashuvi (uzun gavda va kalta oyoqlar) simpatik tizimning past tonusi oshishini yuzaga chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, braximorf tana tuzilishi va yuqori qiymatli O'TS, rezistiv nafas olish paytida simpatik tizim tonusini kuchaytirish uchun marker bo'lib xizmat qilishi mumkin va bu boshqa tadqiqotlar natijalari bilan mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, tananing braximorfizatsiyasi, yog' to'qimasini ko'paytirishga moyil bo'lib, ehtimol bu jarayon yuqorida ta'riflangan neyro-gumoral o'zaro

ta'sirlarning QNOQ ga bergan "simpatik" javobining prognostik belgisi bo'lishi mumkin. Adabiyotlarda, kardiovaskulyar kasalliklar xavfini prognoz qilishda somatotipning endomorfizatsiyalashuvi roli muhokama qilinadi. Ushbu tadqiqotda olingan natijalar ularning sog'lig'ini kuzatish uchun ilmiy asoslash imkoniyatini ochib beradi. Masalan, braximorf tana tuzilishga va ortiqcha tana vazniga ega bo'lgan yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bilan og'rigan bemorlarda QNOQ vaqtida himoya niqoblari va respiratorlarni kiyish kerakligi sababli ortiqcha "simpatik" javobning oldini olish bo'yicha, kardiorespirator reaksiyalarini kiritish asosida fizioterapevtik mashqlarni bajarishda qon oqimini tezlashtirish uchun, yuqori qarshilik bilan nafas olishni talab qiluvchi professional faoliyatni amalga oshirishda (damli cholg'u asboblari musiqachilari, o't o'chiruvchilar va boshqalar) kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi mumkin.

XULOSALAR

1. Turli etnik guruhlarning jismoniy rivojlanishida, jumladan, bir milliy guruh vakillarining boshqa guruh vakillaridan tana tuzilishidagi farqlanishning mutlaqo barcha parametrlarida aniq farqlar yo'qligi aniqlandi. Buni Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi millatlarning etnogenezi bilan bog'liqligi orqali izohlash mumkin.

2. Sportchilarning kichik korpus uzunligiga, tor yelka diametri va tor tos suyagiga, shu bilan birgalikda, uzun oyoqlarga ega bo'lishi ularning dolixomorfizatsiyalashuvi tendensiyasini ko'rsatadi. Buni kuchli jismoniy yuklama va o'sishning "sakrash" davrida androgenlar miqdorining ortiqcha ta'siri bilan asoslash mumkin.

3. Kritik zonada yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarda tananing dolixomorfizatsiyalashuvi, ekologik jihatdan qulay zonada yashovchi navqiron yoshdagi o'g'il bolalarda esa tananing braximorfizatsiyalashuvi kuzatildi.

4. Turli ekologik zonalardagi sinovdan o'tgan navqiron yoshdagi o'g'il bolalarda TVI turlicha og'ishlari bilan farq qilmadi. Demak, Orolbo'yi mintaqasining ma'lum bir zonasida yashash tana vazni yetishmasligi yoki ortiqcha tana vazni (yoki semizlik)ni keltirib chiqaruvchi omil hisoblanmaydi.

5. Birinchi marta aniqlanishicha, 90% tekshiriluvchilarda parasimpatik tizim tonusining kuchlanishi mavjud, shu vaqtning o'zida 10% ko'ngillilarda simpatik faollikning kuchlanishi aniqlandi. "Parasimpatik tizimning tonusi oshgan" tekshiriluvchilarda QNOQ darajasidan qat'i nazar SDNN 21% ga, RMSSD 13-15% ga, pNN50% 30-32% ga, HF 23-25% ga, spektning umumiy quvvati (TP) 2,5-4% ga oshdi, AMo 7-10% ga kamaydi va SI o'zgarishida statistik ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. "Simpatik tizimning tonusi oshgan" ko'ngillilarda ham QNOQ darajasidan qat'i nazar yurak qisqarish chastotasi (HR) 7-11% ga, AMo 11-29% ga, SI 96-129% ga oshishi va RR 3-8% ga, variatsion qator - NN intervallarning eng katta va eng kichik qiymatlari orasidagi o'rtacha farq (MxDMn) 44-57% ga, SDNN 53-57% ga va TP 40-49% ga kamayishi aniqlandi.

6. RMSSD ($p=-0,21$; $p=0,002514$), pNN50% ($p=-0,20$; $p=0,0059075$), HF ($p=-0,17$; $p=0,018437$) bilan QNOQ modellashirilganidan so'ng gavda uzunligining

o'zaro salbiy korrelyatsion aloqalari va AMo ($\rho=0,22$; $p=0,0018937$) bilan QNOQ modellashtirilganidan so'ng ijobiy korrelyatsion aloqalar aniqlandi. Gavda uzunligining yuqori qiymatlari QNOQ ga ega "parasimpatik" YRO' ko'rsatkichlarining past qiymatlari bilan va "simpatik" YRO' ko'rsatkichlarining yuqori qiymatlari bilan bog'liq. Shunday qilib, tana tuzilishining braximorfizatsiyasi QNOQ ga past "simpatik" javobning prognozli markeri hisoblanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ РнД.03/30.06.2020.В.70.03
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

РОЗУМБЕТОВ КЕНЖАБЕК УМАР УГЛИ

**АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И
РЕГУЛЯЦИИ КАРДИОРИТМА У ЮНОШЕЙ, ПРОЖИВАЮЩИХ
В ПРИАРАЛЬЕ**

03.00.08 – Физиология человека и животных

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам

Карши – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.4.PhD/B837.

Диссертационная работа выполнена в Каракалпакском государственном университете. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.qarshidu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель: Есямбетов Адилбай Тлепович
доктор биологических наук, доцент

Официальные оппоненты: Алламуратов Шухратилла Иноятович
доктор биологических наук, профессор
Рахматуллаев Ёркин Шокирович
кандидат биологических наук, доцент

Ведущая организация: Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится «05» 07 2023 года в 11⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.06.2020.B.70.03 при Каршинском государственном университете (Адрес: 180103, город Карши, ул. Кучабог, дом №17. Тел: (0375) 225-34-13; факс: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz). Каршинский государственный университет, 2-корпус, кабинет №202.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрировано под № 178). (Адрес: 180103, город Карши, ул. Кучабог, дом №17. Тел: (0375) 225-34-13; факс: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан «19.06» 2023 года
(реестр протокола рассылки № 9 от «19.06» 2023 года).



Ш.К. Курбанов
Ш.К. Курбанов
Председатель Научного совета по
присуждению учёной степени,
д.б.н., профессор

Ш.А. Саматова
Ш.А. Саматова
Член секретарь Научного совета по
присуждению учёной степени,
к.б.н., доцент

Л.Х. Ёзиев
Л.Х. Ёзиев
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
учёной степени, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Изменения окружающей среды и климата, происходящие сегодня в мире, негативно сказываются на здоровье населения. Особенно это обуславливает резкое увеличение числа инфарктов и инсультов, обострение заболеваний сердечно-сосудистой и дыхательной систем. Соответственно, важное значение приобретает разработка профилактических мер, направленных на укрепление, защиту здоровья населения, повышение уровня физического развития и функциональных возможностей.

В мире ведутся научные исследования по определению особенностей физического развития и уровня физической активности жителей различных неблагоприятных экологических зон, изучению влияния неблагоприятных факторов на их здоровье, разработке рекомендаций, направленных на предупреждение выявленных негативных ситуаций. В этой связи большое внимание уделяется, в том числе, анализу состояния физического развития и здоровья молодежи, обоснованию негативного воздействия неблагоприятных факторов окружающей среды на их организм, совершенствованию территориальных нормативных нормативов антропометрических показателей.

В нашей республике большое внимание уделяется мониторингу текущего состояния здоровья населения, проживающего в условиях Южного Приаралья, анализу негативного воздействия окружающей среды на их организм и профилактике заболеваний. В этой связи, в частности, разработаны проекты по дальнейшему развитию системы здравоохранения и сохранению генофонда населения в Приаральском регионе. В стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены задачи по «... смягчению негативных последствий изменения климата и катастрофы в Аральском море»¹. Исходя из этих задач, важное научно-практическое значение приобретает анализ физического развития юношей, проживающих в Южном Приаралье, выявление изменений тонуса вегетативной нервной системы в сердечной деятельности, выявление взаимосвязи параметров variability сердечного ритма и антропометрических показателей, разработка рекомендаций по вегетативной регуляции сердечной деятельности.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, поставленных в указе и других нормативных правовых актах, касающихся данной деятельности: постановление Президента Республики Узбекистан от 30 октября 2020 года № УП-6099 «О мерах по внедрению здорового образа жизни и развитию массового спорта», постановление Президента Республики Узбекистан от 18 января 2017 года № УП-2731 «о мерах по развитию Приаральского региона о государственной программе на 2017-2021 годы», постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «о стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

от 29 августа 2015 года №255 «о комплексных программах по облегчению и восстановлению последствий Аральской трагедии, а также социально-экономическому развитию, предусмотренных на 2015-2018 годы».

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и техники республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды» и VI. «Медицина и фармакология».

